

ABU BAKR SIDDIQNING ISLOM DINI UCHUN QO'SHGAN HISSASI

Ilmiy rahbar: X.U.Samadov

Oltiboyev Xumoyiddin Muzaffar o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali telekommunikatsiya

texnologiyalari va kasb talim

fakulteti TT23-06 guruh talabasi

elektron pochta manzili:

oltiboyevhumoyiddin@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Abu Bakr Siddiqning islom dini uchun qilgan ishlari amallari u zotning zukkoligi aqliy teran siyosati ezgu amallari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: marifat, islom, din, ilmiy tafakur, Qur'on.

Abu Bakr Siddiq islom dini uchun kata hissa qo'shgan shaxslar qatoriga kiradi. Abu Bakrning onasi Ummu Xayr ismli ayol edi. U ancha vaqtgacha farzand ko'rmadi. Boshqa ayollarda bo'lgani kabi farzand ko'rish ishtiyoqi uning ham qalbini o'rtardi. Bir safar u eri Abu Qahofa bilan Ka'baga borib sig'inishga ahd qildi. Shundan keyin Ummu Xayr farzand ko'rdi. Parvardigor unga o'g'il ato etib bolasi yovuz urf qurboniga aylanishidan xalos qilgan edi. U kelajakda Allohning rasuli etib tanlangan Muhammad ibn Abdullohdan ikki yilu bir necha oylikka kichik edi. Siddiq degan nom esa odamlar rostgo'y deb bilgan hayotida umuman yolg'on gapirmagan kishiga nisbatan aytiladi. Abu Bakr Siddiq umrida yolg'onni tilga olmagan kishidir. U kishi yoshligida juda ziyrak va aqlli. Abu Bakr oq yuzli peshonalari keng va qomatili kishi edi. Tijorat ishlari bilan shug'ullanardi. Xush xulq fazilatli saxiy odam edi. Abu Bakr Siddiq Muhammad ibn Abdulloh bilan ko'p ham suhbat bo'lar uyiga tez tez borib turar edi. Ikkovi ko'p vaqtini birga o'tkazishar faqat safar payti yoki ayrim ishlar tufayligina bir biridan ajralishardi.¹ Bir kuni tushida oy Makkaga tushib undagi har bir uyga nur taratganini ko'rdi.² Tijorat tugaganidan so'ng Makkaga qaytish vaqtida bir kishi Abu Bakrning yoniga kelib. Sen mening she'rlarimdan mana bu baytlarni yodlab ol. Bu haqda payg'ambaringga yetkazasan deb she'r o'qiy boshladi.

Abu Bakr u baytlarni yodlab oldi. Rasululloh alayhissalom chiqdilar va u kishini Alloh seni do'zaxdan xalos etdi deya qarshi oldilar. Abu Bakr Muhammad alayhissalomga qaradi va yo'ldagi voqealarni esladi. Tushda ko'rganlarini ko'z oldiga keltirdi. Payg'ambarimiz s.a.v. Abu Bakrga aytdilarki Ey Abu Bakr men Allohning senga va jamiyki yer yuzidagi insonlarga yuborgan elchisiman. Mening

¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Umar>

² <https://m.aniq.uz/uz/yaniliklar/mujizaviy-umar>

payg‘ambarligimga va Allohning yagonaligiga imon keltir.

Abu Bakr imon keltirgandan so‘ng o‘z qavmini ham islomga da'vat qila boshladi. Abu Bakr roziyallohu anhu Alloh yo‘lida mushriklardan ozor ko‘rayotgan qul va cho‘rilarni sotib olib ozod qilar edi. Uning bu ishlaridan otasi xabar topib aytdi ey o‘g‘lim sen zaif qullarni sotib olib ozod qilyapsan agar kuchli qullarni ozod qilsang seni himoya qilar va hurmatingni joyiga qo‘yar edi. Abu Bakr hali islomni qabul qilmagan otasiga shunday dedi ey otajon men Alloh yo‘lida shu ishni qilishni xohladim. Abu Bakrning bu saxiyliigi va oliy janoblighi xususida Alloh taoloning ushbu oyati karimasi nozil bo‘ldi. Ana endi kim o‘z mollaridan kambag‘al bechoralarga berilishi lozim bo‘lgan zakot va boshqa sadaqalarini ado etsa va Allohdan qo‘rqsa bas.

Biz uni oson yo‘lga muyassar qilurmiz. Namozni o‘qib bo‘lgach Abu Bakr aytdiki Albagta biz haq yo‘ldamiz qurayshliklar zalolatdadir. Allohning uyida turgan holda qanday qilib mushriklardan qo‘rqib o‘tiramiz. Qachongacha nur dunyo zulmatida qoladi. Ba'zi sahobalar so‘rashdi ey Abu Bakr shunday qila olamizmi. Rasululloh alayhissalom aytdilar. Hali biz juda ozmiz. U to‘lqinlanib gapirar va Rasululloh alayhissalomni Allohning kalomini oshkora qilish uchun masjidga chiqishga undardi. Hech qancha vaqt o‘tmasdan Rasululloh masjidga yo‘l oldilar. U zotga ergashib sahobalar ham birga chiqishdi. Birgalikda masjidga kirdilar va shunda Abu Bakr mushriklarga xitob qildi.

Quraysh mushriklari Abu Bakr ustiga tashlanib juda qattiq kaltaklashdi. Hattoki yuzlari yorilib ko‘p qon oqdi. Sahobalar u kishini uylariga ko‘tarib ketishdi. Abu Bakrning kaltaklanishi Payg‘ambarimiz alayhissalomga og‘ir botdi. Bir kuni u Rasulullohdan Xabashistonga hijrat qilishga ruxsat so‘radi. Ruxsat olganlaridan so‘ng tinch va xotirjam yashash istagida Xabashistonga yo‘l oldi. Abu Bakr moli oilasi Rasulullohni Alloh yo‘lida vaqtincha tark etib Makkadan uzoqqa yo‘l oldi va Alloh yo‘lida muhojir bo‘ldi. Makkadan chiqib borarkan yo‘lda qabila boshlig‘i uchratib qoldi va Qayerga ketyapsan ey Abu Bakr deb so‘radi. U to‘g‘risini aytib berdi Qavmim menga ko‘p aziyat berib siquvga oldi. Makkadan ketishdan boshqa ilojim qolmadi. Bir kuni Rasululloh alayhissalom Masjidul Haramga bordilar. Ka‘ba oldidagi kishilarga shunday dedilar men bugun kechasi sayr qildim. Abu Jahl aytdiki qayerga sayr qilding. Payg‘ambar alayhissalom aytdilarki Baytul maqdisga sayr qildim. Abu Jahl haddidan oshib yana so‘radi. Keyin ertalab oldimizda bo‘ldingmi. Rasululloh alayhissalom ha deb tasdiqladilar.

Rasul alayhissalom Yasribga hijrat qilishga izn bo‘lishligini kutib yurardilar. Alloh taolo hali payg‘ambarga ruxsat bermagandi. Payg‘ambarimiz bir kuni Abu Bakr Siddiqning uyiga bordilar. Bu tashrif do‘stini ajablantirdi. U zot dedilar menga Alloh hijrat qilishim uchun ruxsat berdi. Abu Bakr Siddiq dedi ey Allohning rasuli sizga ota-onam fido bo‘lsin. Albatta sizga hamroh bo‘laman. Rasululloh alayhissalom rozilik berdilar. Abu Bakr bundan xursand bo‘lib takbir aytdi. Ikkalasi

birga Yasribga yo‘l olishdi. Bu islom olamidagi ulkan voqea edi. Savr g‘ori og‘ziga yetganda Abu Bakr Rasululloh alayhissalomga sizni haq bilan yuborgan Allohga qasamki g‘or og‘ziga kirmay turing men sizdan oldin kirayin agar g‘orda biror xavf bo‘lsa bu xavf menga yetsin dedi. Abu Bakr g‘orni tozalash uchun kirdi.³ Har bir toshni ko‘tarib qaradi. Bir toshning tagidan uya chiqdi, ko‘ylagani yechib unga tiqib qo‘ydi. O‘sha uyada ilon bor edi. Xavf yo‘qligini bilgandan so‘ng Rasuli Akramni chaqirdi. Payg‘ambarimiz alayhissalom hazrati Abu Bakrning tizzalariga boshlarini qo‘yib uxladilar. Biroz o‘tgandan so‘ng Abu Bakr oyoqlarini bir narsa chaqayotganini sezdi. Tong otgach Rasul alayhissalom Abu Bakrdan ko‘ylaging qani deb so‘radilar.

Abu Bakr bo‘lib o‘tgan voqeani aytib berdi. Rasul alayhissalom Abu Bakrning oyog‘i shishib turganini ko‘rdilar va senga nima qildi deb so‘radilar. Abu Bakr ilon chaqqani uchun shishganligini aytganidan so‘ng Paytambarimiz alayhissalom ilon chaqqan joyga dam urib shunday duo qildilar Allohim Abu Bakrni jannatdagi darajamda birga qilgin. Allohning qudrati bilan shish va og‘riq yo‘qoldi. So‘ng Alloh taolo Nabiy alayhissalomga vahiy yuborib duolari ijobat bo‘lganini bildirdi. Quraysh mushriklari Muhammad alayhissalom bilan u zotning do‘stini topish uchun har tomonga odamlarini jo‘natishdi. Izga tushganlar aylanib-aylanib g‘orning og‘zida to‘xtadilar. Payg‘ambarimiz va Abu Bakrni shu yerda deb gumon qilib g‘or atrofini o‘rab oldilar. Alloh taolo o‘rgimchakni yubordi. U g‘or og‘zi va atrofiga in qo‘ydi. Qodir Alloh yana ikkita kabutarga amr qildiki g‘or atrofidagi butaga in qurdi tuxum qo‘yib jo‘ja ochdi. Quraysh ulug‘lari g‘or og‘ziga yetib kelgunicha hammasi taxt bo‘ldi. Abu Bakr tashqaridagilarni ko‘ribovozlarini eshitdi. U yoq bu yoqqa razm solganlardan biri Allohga qasamki sizlar izlayotgan kishilar shu yerda dedi. Abu Bakr Siddiq xafa bo‘lib yig‘lab Allohga qasamki men o‘zim uchun yig‘layotganim yo‘q lekin sizga bir narsa bo‘lishini xohlamayman ey Rasululloh dedi. Kunlardan birida Abu Bakrning qorni juda ochdi. Uyidan yeyishga biror narsa topolmadi. Qorin ochligiga sabr qilib bo‘lmasdi. Uning quli ozgina taom keltirdi. Abu Bakr shu taomdan bir luqma olib yedi. Quli aytdi: Ilgari bir yegulik olib kelsam, qayerdan olding deb so‘rar edingiz. Ammo bu safar suramadingiz. Abu Bakr Siddiq ochlikning zo‘ridan taom to‘g‘risida so‘rashni unutibman dedi. So‘ng taomdan qo‘lini tortdi va so‘radi aytchi sen bu taomni qayerdan keltirding. U aytdi bir kuni johiliyat vaqtida bir qavm oldidan o‘tib qoldim. U paytlar sehr jodu qilib yurardim. Shu qavmga ham sehr jodu qilib bergan edim. Bugun o‘sha joydan o‘tib ketayotsam to‘y bo‘layotgan ekan. Menga o‘sha sehrning haqiga mana shu taomni berishdi.

Abu Bakr Siddiq aytdi meni halok qilmoqchi bo‘ldingmi. Keyin qo‘lini halqumiga tiqib qayt qila boshladi. Lekin yutgan luqma osonlikcha chiqmadi. Ichingga yutgan luqma suv ichsang chiqishi mumkin deyishdi. Abu Bakr Siddiq idishda suv olib kelishni buyurdi. Suv keltirildi. U o‘zini majburlab suvni icha boshladi so‘ng qayt

³https://youtube.com/live/plXVAzTNnp0?si=IJ1voXb8_baofb5s

qilganda luqma suv bilan birga qorindan chiqib ketdi. Shunda oldidagilar bu ishiga hayron bo'lib aytdilarki Alloh senga rahm qilsin, shu luqmani deb joningni shuncha qiynadingmi. Abu Bakr Siddiq dedi agar mana shu narsa chiqmasa uni jonim bilan chiqargan bo'lardim. Batahqiq Rasulullohdan eshitgan edim haromdan o'sgan har bir jasad do'zaxga haqlidir. Abu Bakr Siddiq ko'z yoshlarini artib shunday dedi bu luqmani yeb tanamga harom kirishidan qo'rqdim. Rasululloh masjididan Oisha onamizning hujrasiga qaytdilar. Shu kuni u kishi oxirat safariga yo'l oldilar. Bu paytda payg'ambarimiz 63 yoshda edilar. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu Rasulullohning oldilariga kirdi. Rasululloh Oisha onamiz hujrasida yuzlari yopiq yotardilar. Abu Bakr Siddiq u kishining muborak yuzlarini ochib o'pdilar va Rasulullohga yuzlanib shunday dedi ota onam sizga fido bo'lsin Alloh sizga taqdir qilgan o'lim sharbatini totdingiz. Endi sizga bundan keyin hech qachon o'lim yetmaydi. Abu Bakr Siddiq u zotning yuzlariga yopinchiqni qayta tortdilar. Keyin Hazrati Ali, Fazl ibn Abbos va shu yerda hozir bo'lgan kishilar Rasuli Akramni kafanlashga kirishdi. Shunda musulmonlar Rasulullohni qayerga dafn qilish xususida tortisha boshladi. Qayerga dafn qilamiz. Odamlar bilan bir joygami. Yoki o'z uylarigami Abu Bakr Siddiq aytdiki Rasulullohdan Allohning nabiyi qayerda vafot etsa, o'sha joyga dafn qilinadi deganlarini eshitgandim.⁴ So'ng Nabiy Oisha onamiz hujrasiga dafn etildi. So'ngra birinchi xalifa Runga yurishdan oldin Umar, Ali, Usmon, Abdurahmon ibn Avf, Sad ibn Abu Vaqqos, Said ibn Zayd, Abu Ubayda ibn Jarroh, Badr jangida qatnashgan muhojir va ansorlardan iborat ko'zga ko'ringan sahobalar bilan maslahat qildi.

So'ng Abu Bakr Siddiq shunday dedi. Ey odamlar albatta Alloh sizlarga islomni nemat qilib berdi. Runga yurish uchun tayyorgarlik ko'ringlar. Albatta men sizlarga boshliqlarni tayin qilaman. Robbingizga itoat eting. Boshliqlaringizga qarshi chiqmang. Albatta Alloh taqvo qiluvchilar va chiroyli amal qiluvchilar bilan birga. Shomga yuborilgan qo'shinni Bani Asfar va fors harbiyda murtdlar bilan sherikchilik oldi berdi qilishlikdan qaytarildi. Hazrati Umar bir kuni Abu Bakr Siddiqning oldiga bordi.⁵ U kishi og'zini bog'lab olganini ko'rdi. Shunda Abu Bakr Siddiq jim tur degandek ishora qildilar. Birozdan so'ng Abu Bakr Siddiq albatta mana shu narsa yani til meni halok qiladi dedi. Abu Bakr Siddiq ulug' inson bo'lib ko'pgina xislatlari bilan boshqa sahobalardan ajralib turardi. Bu xislatlari bilan ulardan ko'ra baland cho'qqiga ko'tarila oldi. Buni quyidagilarda ham ko'rish mumkin. Iymon. Agar bu ummatning iymonini Abu Bakrning iymoni bilan o'lchansa Abu Bakr Siddiqning pallasi og'irroq kelishini Rasululloh aytganlar. Fidoiylik. U butun moli va jonini din yo'lga bag'ishladi. Qat'iyat va oqillik. Ayniqsa zakot berishdan bosh tortgan va murtdlarga qarshi muhoraba qilishga qat'iy turgan vaqtda bu narsa yaqqol ko'zga tashlandi. Tavoze va iffat. Xalifa bo'lishdan oldin musulmonlarga rahmdil va mehribon

⁴ <https://tgstat.com/uz/channel/>

bo'lganidek xalifalik davrida ham tavoze va rahm shafqatli bo'lib qoldi. Qur'onni jamlash. Hazrati Umar Allohning kitobi yo'q bo'lib ketishidan qo'rqardi. Xalifa oldiga kirib Qur'onni jam qilishni taklif qildi. Abu Bakr bu fikrni ma'qulladi. Mushafning jamlanishi tarixda Abu Bakr Siddiqning eng ulug' ishlaridan biri bo'lib qoldi. Alloh u zotdan rozi bo'lsin. Abu Bakr Siddiq o'limi yaqinlashganini sezgach o'zidan so'ng bir kishini xalifalikka tayinlashni xohladi. U o'lim bilan olishib turgan bir holda ham musulmonlarning fitna va iztirobdan uzoq bo'lish tashvishini chekardi. U hazrati Umarning xalifa bo'lishini xoxlardi. U vafotidan keyin Umar ibn Xattobni xalifa bo'lishini kotiblariga yozdirib qoldirdi. Vafot etishi yaqinlashganini sezib, oldida turganlarga agar men vafot etsam, meni Nabiy alayhissalom dafn qilingan uyga olib boringlar. Eshiklari oldida turib assalomu alaykum yo Rasululloh mana bu kishi Abu Bakr Siddiq sizdan izn so'rayapti deb aytinglar. Agar izn berilsa meni oldilariga olib kiringlar va meni u joyga dafn qilinglar. Agar eshik ochilmasa meni Baqi qabristoniga olib borib dafn qilinglar. U kishi oxirgi nafasda meni musulmon holimda vafot ettirgin solih bandalaring qatoriga qo'shgin dedi. Abu Bakr Siddiq vafot etganidan keyin aytganidek u kishini Payg'ambarimiz orom olayotgan uy oldiga olib bordilar.

Sahobalardan biri assalomu alaykum yo Rasululloh sizdan Abu Bakr Siddiq izn so'rayapti dedi. Eshik ochildi. Ichkaridan xotif ovoz berdi habibni olib kiringlar do'st do'stga mushtoqdir. Abu Bakr Siddiq qizi Oisha roziyallohu anhoning hujrasiga dafn qilindi. U kishining boshlari Rasulullohning sallallohu alayhi vassallam ko'ksilariga yaqin joyga qo'yildi. U kishi 2 yilu 3 oyu 10 kun xalifalik qildi va hijratning 13-yili jumadul oxir oyining 8-kuni vafot etdi. Abu Bakr Siddiq 63 yil umr ko'rdi. Rasulullohning ko'rgan tushlari haq bo'lib chiqdi. Chunki Abu Bakr Siddiq Rasul alayhissalom vafotlaridan ikki yarim yil o'tgandan keyin boqiy dunyoga rixlat qildi. Alloh u kishidan rozi bo'lsin.⁶

Abu Bakr Siddiq Islom diniga erkinlik bilan qo'shilib, Quraysh qavmi ichidagi birinchi musulmon bo'ldi. Bu Islomning boshlanishi va rivojlanishida ahamiyatli bir bosqich bo'lgan sabablardan biridir. Abu Bakr Siddiqning Islomga qo'shilishi uning insoniy qobiliyatlariga va shaxsiy xususiyatlariga asoslangan. U hayotida jiddiylik bilan haqiqiylik, sadoqat, muxoflik va adolatga e'tibor beradi. Abu Bakr Siddiq Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin do'sti bo'ldi va unga o'z hayotini bag'ishlagan. U Payg'ambarga erkinlik bilan yordam berdi va uning diniy g'oyalarini qo'lga kelgan vazifalarini bajarib, Islomning tarqatilishiga xizmat qildi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning vafotidan so'ng, Abu Bakr Siddiq musulmonlar tomonidan birinchi halifa etib tayinlandi. Abu Bakr Siddiqning rahbarlik davri boyuncha u Islom dinini tarqatib diniy prinsiplarni saqlashga katta e'tibor berdi. U qiyinchiliklar bilan kurashdi. Shu sababli Abu Bakr Siddiqning Islomga qo'shilishi uning imonini sadoqatini va o'zini Islomga bag'ishlashini ifodalaydi. Uning o'rni Islom tarixida katta

⁵ <https://d.qiziqarli.uz/serial/umar>

e'tiborga sazovor bo'lib uning hayoti boyuncha ulug'lanadi va musulmonlar uchun namuna qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://oliymahad.uz>
2. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/mujizaviy-umar>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Umar>
4. https://youtube.com/live/plXVAzTNnp0?si=IJ1voXb8_baofb5s
5. Abdulloh domla Umar Roziyallohu anhu haqidagi amri maruflari
6. <https://tgstat.com/uz/channel/>
7. <https://qadriyat.uz/tarix/sahobalar/721-umar-ibn-hattob-roziyallohu> anhu
8. <https://www-apkonline-net.cdn.ampproject.org>
9. <https://qiziqarli.uz/serial/serial/26-umar-ibn-hattob-1-30-qism-umar-ibn-xattob-ozbek-tilida.html>
10. <https://d.qiziqarli.uz/serial/umar>
11. Abdulaziz Shanaviyning "Rasulullohning izdoshlari" kitobidan (Toshkent, «Movarounnahr», 2008) olindi. Хуршид Саматов
12. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
13. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
14. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
15. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
16. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
17. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
18. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 45-48.
19. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
20. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.